

## RAQAMLI TA'LIM RESURSLARI ORQALI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH

*O'rinboyeva Nigora Isroilovna*

*Farg'onan viloyati Oltiariq tumani DMTT-13 direktori*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotidagi raqamli texnologiyalar orqali ta'lism berishda ta'lism samaradorligini oshirish choralari haqida aytib o'tilgan.

**Аннотация:** В данной статье говорится о мерах по повышению эффективности обучения в организации дошкольного образования посредством цифровых технологий.

**Abstract:** This article talks about measures to increase the effectiveness of education in the preschool education organization through digital technologies.

**Kalit so'zlar:** ta'lism, raqamli texnologiyalar, raqamli ta'lism resurslari, ta'lism sifati, ta'lism jarayonlari, zamonaviy texnologiyalar, pedagoglar, raqamlashtirish.

**Ключевые слова:** образование, цифровые технологии, цифровые образовательные ресурсы, качество образования, образовательные процессы, современные технологии, педагоги, цифровизация.

**Key words:** education, digital technologies, digital educational resources, quality of education, educational processes, modern technologies, pedagogues, digitization..

Maktabgacha ta'lism sifati o'quv-tarbiya jarayoni – ta'lism xizmati va uning natijasi sifati tarbiyalanuvchini tayyorlashdan iborat. Bu ikki tomonlama ta'lism sifatining ichki va tashqi tarkibiy qismlari o'rtasidagi tafovutda o'zini namoyon qiladi. Maktabgacha ta'lism sifatining ichki tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- ❖ o'quv jarayonining shartlari;
- ❖ o'quv jarayonini amalga oshirish sifati;
- ❖ o'quv jarayoni natijalarining sifati;
- ❖ pedagogika va kadrlar siyosati bilan bog'liq ichki tarkibiy qismlar.

Maktabgacha ta'lism sifatining tashqi tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- ❖ ta'larning tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalarining ta'lism-tarbiya talablariga muvofiqligi;
- ❖ davlat ta'lism standartlariga muvofiqligi;
- ❖ maktabgacha ta'lism tashkiloti imidji;
- ❖ zamonaviy mehnat bozori talablariga muvofiqligi.

Maktabgacha ta'lism sifati va uning samaradorligini oshirishdagi pedagogik muammolarni aniqlash tadqiqot vazifalaridan biri ekanligini inobatga olib, dastlab, maktabgacha ta'lism sifatining mazmun-mohiyati, falsafiy-pedagogik tahlili,

rivojlanish bosqichlari hamda uning samaradorligini ta'minlovchi boshqaruvin bo'yicha tahlillar olib borish nazarda tutildi.

**Raqamli texnologiya o'zi nima?** Bu-xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi.

Ta'lim sifati bilan bir qatorda ta'lim samaradorligi tushunchasiga ham to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu tushunchalar bir-biridan farq qilib, sifat natijaning maqsadga nisbati bilan belgilansa, samaradorlik esa, natijaning xarajatlarga, sarflangan resurslarga nisbati bilan belgilanadi. Ta'lim sifati samaradorligi tushunchasi, birinchi navbatda, "samaradorlik" tushunchasiga murojaat qilishni talab qiladi. Tadqiqot ob'ekti bo'yicha tahlil qilingan adabiyotlarning aksariyatida samaradorlik tushunchasiga to'xtalganda, uni "unumdorlik" tushunchasi bilan Bu fikrda unumdorlik maktabgacha ta'limni boshqarishga nisbatan bildirilmoqda, unumdorlik berilgan yuqoridagi izohdan kelib chiqib, ta'lim sifati samaradorligiga ta'lim jarayonidagi unumli boshqaruvni amalga oshirish orqali erishish mumkinligini anglash mumkin. Chunki raqamli ta'lim resurslari, zamonaviy texnologiyalarning afzalliklarini ko'rgan kadr o'z sohasiga oid bo'lgan yuqori texnologiyalarga murojaat etib, raqamlashgan tizimga o'ta boshlaydi. So'nggi yillarda ta'limni "raqamlashtirish" muommolari, uning shakllanishiga ta'siri bo'yicha biror bir davlat loyihasi yoki so'rovnama asosida tadqiqotlar o'tkazilmaganligi ham muhimdir. Hamma soha va tarmoqlarni raqamlashtirish bugun barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda jadallik bilan olib borilmoqda. Ayniqsa, pandimiya sharoitida bu kabi zamonaviy texnologiyalar yordamida masofadan ishlash imkoniyatiga katta ehtiyoj tug'ildi. BMT tomonidan keltirilgan ma'lumotga ko'ra, 2022-yilga kelib, dunyo bo'yicha yalpi ichki mahsulotning qariyb chorak qismi raqamli texnologiyalarga bog'liq bo'lib qolishi proqnoz qilinayotgan hozirgi sharoitda, bu yo'nalishdagi ishlarni jadallashtirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish eng to'g'ri strategik yo'nalish hisoblanadi. Albatta dunyo iqtisodiyotning chorak qismi chakana ko'rsatkich emas, bundan tashqari bu ko'rsatkichlar kundan-kunga o'sib borayotganligiga hammamiz guvohmiz. Shunday ekan biz uchun eng samarali yo'l tez orada hamma tarmoqlarda raqamli texnologiyalarni va raqamli ta'lim resurslarini joriy etish va undan foydalanishning eng samarali va mahsuldor yo'llarini amaliyatga tatbiq etish hisoblanadi. O'ylaymizki, interfaol o'yinlardan foydalanish nafaqat o'quv jarayoni sifatini oshiradi, balki guruh bolalarining, mutaxassislar va ota-onalar o'rtasida masofaviy muloqotni tashkil etish uchun sharoit yaratadi. Avvalo shuni esda tutish kerakki, zamonaviy texnologiyani qo'lga kiritishning o'zi etarli emas, u foydali bo'lishi uchun u bilan ishlay olish muhimdir. Xususan, bolalar bilan bevosita ta'lim va bo'sh vaqtini o'tkazish jarayonida yangi jihozlarning imkoniyatlaridan foydalana olish kerak. Zamonaviy axborot maydoni nafaqat boshlang'ich mакtabda, balki maktabgacha yoshdagagi bolalarda ham

kompyuter bilimlarini talab qiladi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari ota-onalar, pedagoglar va mutaxassislarning erta ta'lif sohasidagi imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Interfaol va multimedia vositalari bolalarni yangi bilim olishga intilishga ilhomlantirish va rag'batlantirish uchun mo'ljallangan. Interfaol doska o'quv ma'lumotlarini taqdim etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi, bolaning motivatsiyasini oshirishga imkon beradi. Raqamli ta'lif resurslaridan foydalanishda hozirgi kunda barcha ta'lif tashkilotlarida foydalanish asosiy maqsad sifatida qarash mumkin. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish (rang, grafik, tovush, zamonaviy video jihozlar) turli vaziyatlar va muhitlarni simulyatsiya qilish imkonini beradi. Multimedia dasturlariga kiritilgan o'yn komponentlari tarbiyalanuvchilarning kognitiv faolligini faollashtiradi va materialni o'zlashtirishni kuchaytiradi. Interaktiv ta'lif vositalariga aylanadi ajoyib yordamchilar tarbiyalanuvchilarning rivojlanishini diagnostika qilishda: diqqat, xotira, fikrlash, nutq, shaxsiyat, o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish. Raqamli ta'lif resurslari orqali maktabgacha yoshdag'i bolalarga eng yaqin va tushunarli bo'lgan majoziy turdag'i ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Harakat, tovush, animatsiya bolalarning e'tiborini tortadi. Bolalarda harakat qilish va o'ynash istagi paydo bo'ladigan hissiy va kognitiv zaryad oladi. Hozirgi vaqtida maktabgacha yoshdag'i bolalar bilan ishlashda ixtisoslashtirilgan kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ayniqsa dolzarbdir. Interfaol o'ynlarning asosiy vazifalaridan biri bolaga ota-onsa va pedagogik ta'sirning passiv ob'ekti emas, balki faol sub'ektga aylanishiga yordam berishdir. Bu bolaga ongli ravishda bilim olish imkonini beradi. Ta'lif-tarbiya berish sifati ta'lif jarayoni, uning samarali natijalari va o'ichovini ifodalaydigan ajralmas jarayon bo'lib, uning maqsadi jamiyat maqsadlariga mos kelishi lozim. Maktabgacha ta'lif tashkilotiga ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida qaraydigan bo'lsak, ta'lif-tarbiya sifatini ichki va tashqi xususiyatlarga ajratish mumkin. Ta'lif tashkilotiga bevosita ta'siri bilan birga bilvosita ta'sir qiluvchi omillar – mamlakat iqtisodiyoti, mintaqaning ijtimoiy-madaniy va siyosiy hayoti, fan yutuqlari va boshqalar ham o'quv-tarbiya jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Bundan ko'rinish turibdiki, ta'lif-tarbiya sifati – davlat, jamiyat va shaxsning ta'lif ehtiyojlarini qondira oladigan, zamonaviy talablarga javob beradigan, kombinatsiyalashgan pedagogik nazariya sifatida qaraladi. Yuqorida aytib o'tilgan ta'lif sifatiga ta'sir qiluvchi omillar va to'siqlarni bartaraf etish uchun bugungi kunda mamlakat maktabgacha ta'lif tizimining asosiy vazifasini belgilab olish muhim. Ta'lif tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishlaridan biri ta'lif salohiyati, psixologik-pedagogik fan va sub'ektlarning ta'lif amaliyoti integratsiyasini ta'minlash hamda rivojlantirishga qaratilgan MTTlarda doimiy malaka oshirish tuzilmasiga o'tish hisoblanadi.

**Ta'lifning maqsadi. Raqamli texnologiyalar va raqamli ta'lif resurslari orqali elementar (oddiy va sodda ko'rinishdagi) didaktik vosita va didaktik rolli (yo'llarda**

xavfsiz harakatlanish qoidalarini o'zlashtirish rolidagi jismoniy shaxs sifatida) o'yinlar orqali piyoda harakatlanuvchi bolalarda YHX qoidalariga doir boshlang'ich bilim va ko'nikmalarini hosil qilish.

### Foydalanilgan adabiyot ro'yxati.

1. M.A.Abdullayeva Maktabgacha ta'limdi boshqarishning ilmiy asoslari. O'quv qo'llanma 2020-y
2. Yuldashev U., Mamarajabov M., Tursunov S. Pedagogik Web-dizayn. O'quv qo'llanma – T.: "Voris", 2013.
3. Aripov M., Fayziyeva M., Dottoev S. Web-texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.; "Faylasuflar jamiyati", 2013
4. D.Sayfurov, Fayziyeva M. Ta'limda ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi. 2017-y.
5. Yo'l harakati qoidalari (*ertalabki davra suhbati*). Nigmatov A.N., Buriev X.K., Mirsaatova Sh.R. O'quv qo'llanma.–Toshkent, 2023. – 88 b.